

MENTHA PIPERITA L. – QALAMPIR YALPIZNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Tursunova Sh.A
Jovlieva U.R

Annotatsiya. *Respublikada so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar etishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil isloxotlar amalga oshirilmoqda.*

Dorivor o'simliklariga oxirgi vaqtda alohida e'tibor berilayapti, ular qatoriga yalpiz o'simligi ham o'zining dorivorligi, foydali xususiyatlari bo'yich alohida o'rinni egallaydi.

Kalitso'zlar: *aktinomorf, atir-upa, dorivor, efir moyi, ko'pyillik, manzarali, mentol, oziq-ovqat, turkum, tur, xushbo'y, flora.*

O'zbekistonning o'simliklar dunyosi juda boy va xilma-xildir. Ular orasida dorivor o'simliklar alohida o'rinni egallaydi, chunki aholi tomonidan keng foydalanib kelinmoqda.

Respublikada so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar etishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil isloxotlar amalga oshirilmoqda.

Dorivor o'simliklariga oxirgi vaqtda alohida e'tibor berilayapti, ular qatoriga yalpiz o'simligi ham o'zining dorivorligi, foydali xususiyatlari bo'yich alohida o'rinni egallaydi[1].

Bu oilaga 200 turkum, 3500 tur kiradi. O'zbekistonda 38 turkumga oid 214 turi o'sadi. Oila vakillarining poyasi 4 qirrali. Barglari oddiy, poyada qarama-qarshi joylashgan. Gultojibarglari ikki labli, ustki labi 2 ta, ostkisi 3 ta gultojibargdan iborat. Changchilari 4 ta, ba'zan 2 ta. Urug'chisi 2 ta meva bargli, mevasi yong'oqcha. Bu oila vakillari efir moylariga boy, ba'zi vakillari sanoatda ishlatiladi. Ba'zi turlari ovqat mazasini yaxshilashda ishlatiladi. Moy beruvchi va manzarali o'simlik sifatida ekiladi. Begona o't sifatida o'sadigan vakillari ham ko'p[2].

Yalpiz -Mentha ko'p yillik, ba'zan bir yillik xushbo'y o't o'simlik. Gultojisi aktinomorf. Zax yerlarda, ariq va kanal bo'ylarida tarqalgan. Yalpizning O'zbekistonda 45 turi o'sadi. O'zbekiston florasida Osiyo yalpizi -Mentha asiatica keng tarqalgan. Dala yalpizi-Mentha arvensis, jingalak yalpiz -Mentha erispe, Kalampir yalpiz-Mentha piperita ekiladi. Yalpiz tarkibida efir moylari mavjud bo'lib, uning 41-65% ni mentol tashkil etadi. Mentol tibbiyotda atir-upa tayyorlashda, oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi. Yalpiz tish og'rig'ini, bosh og'rig'ini, qorin og'rig'ini davolashda ishlatiladi[2,4].

Turkum. Mentha L. - Yalpiz

Tur. Mentha piperita L. - Qalampir yalpiz

Mentha piperita L. - Qalampir yalpiz. Ko'p yillik, bo'yi 30 - 100 sm ga yetadigan o't o'simlik bo'lib, poyasi bir nechta, tik o'suvchi, 4 qirrali. Bargi oddiy, cho'ziq - tuxumsimon yoki lansetsimon, o'tkir uchli, qirrasi o'tkir arrasimon, poyada qisqa bandi bilan qarama-karshi joylashgan. Gullari mayda, qizil - binafsha rangda, poya va shoxlar uchida g'uj joylashgan boshqochasimon gul to'plami hosil qiladi. Gulkosachasi naychasimon, besh tishli bo'lib, meva bilan birga tojisi bir oz qiyshiq, voronkasimon, to'rtbo'lakli, otaligi 4 ta, onalik tuguni 4 bo'lakli, yuqoriga joylashgan. Mevasi kosachabargi bilan birlashgan 4 ta yong'oqcha(1-rasm).



1-rasm. *Mentha piperita* L. - Qalampir yalpizning O'zMUBotanika bog'idagi ko'rinishi

Mentha piperita L. -MDX, mamlakatlarida yovvoyi holda uchramaydi. Ukraina, Belorussiya va Moldaviya Respublikalarida, Rossiyaning Krasnodar o'lkasi hamda Voronej viloyatida, Markaziy Osiyo davlatlarida madaniy sharoitlarda o'stiriladi [3].

Mentha piperita qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Abu Ali ibn Sino qalampir yalpiz bilan bosh va qo'l oqoy og'rig'ini davolagan, xamda ovqat xazmini yaxshilash, yaralarni, sariq va boshqa kasalliklarni davolash uchun ishlatgan. Kalampir yalpiz bargi va efir moyining dorivor preparatlari (damlamasi, nastoykasi va yalpiz suvi) kungil aynishini va qusishni to'xtatishda xamda ovqat xazmini yaxshilashda ishlatiladi. Yalpiz suvi yana og'iz chayqash, dorilar ta'mini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Mentol preparatlari quloq, burun, nafas yo'llari kasalliklarida xamda tish og'rig'ini qoldirish uchun ishlatiladi. Mentoldan bosh og'rig'ini (migren) qoldiradigan damlama tayyorlanadi. Mentol preparati – validol stenokardiyaga (ko'krak qisish kasalligi)ga davo qilishda ishlatiladi. Bargi tinchlantiruvchi, o't haydovchi va me'da kasalliklarida ishlatiladigan yig'ma-choylar, efir moyi qorin og'rig'ini qoldiruvchi tabletka va tomchilar, mentolingofen tarkibiga kiradi. Efir moyidan oziq-ovqat sanoatida va parfyumeriyada foydalaniladi[3,4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 yanvardagi № 5-sonli "2015-2017 yillarda o'rmon ho'jaliklari tizimini rivojlantirish, dorivor va ozuqabop o'simliklar xom-ashyosini etishtirish, tayyorlash va qayta ishlashni yanada kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida "majlis bayonnomasi qarori.
2. Matkarimova A.A., Maxkamov T.X., Maxmudova M.M., Azizov X.Ya., Vaisova G.B. Botanika. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019. 298 b.
3. Мухторов М. Минг дардга минг даво. Қарши: Насаф, 2009. -271 б.
4. Nabiyeu M. Chotqol ne'mati. – Toshkent: Ibn Sino, 2004. – 173 b.